

U. MAHKAMOV, D. MAHKAMOV,  
N. MAHKAMOVA, D. ISMOLOVA

TYUTOR  
PEDAGOGIK  
FAOLIYATINI  
TASHKIL ETISH



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RSTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIK DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

U. MAHKAMOV, D. MAHKAMOV,  
N. MAHKAMOVA, D. ISMOLOVA

TYUTOR  
PEDAGOGIK FAOLIYATINI  
TASHKIL ETISH

(uslubiy qo'llumma)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RSTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**

«ZEBO PRINT»  
TOSHKENT – 2022

*CHDP Uning tashkil etilgantiligining  
5 yillik yubileyiga bag'ishlanadi.*

**U. Mahkamov, D. Mahkamov, N. Mahkamova, D. Ismoilova**  
**Tyutor pedagogik faoliyatini tashkil etish** [Matn]: uslubiy qo'llanna / U. Mahkamov, D. Mahkamov, N. Mahkamova, D. Ismoilova.  
–Toshkent: «ZEBO PRINT», 2022. – 168 b.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida tayyorlangan ushbu uslubiy qo'llanna tyutor pedagogik faoliyatini tashkil etish va boshqarishning mazmuni, pedagogik, psixologik, metodik asoslarini tabalarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, ma'naviy jihatlarining nazariy va amaliy mexanizmlari takomillashtirilgan.

Ushbu uslubiy qo'llannadan “Pedagogika”, “Pedagogik mahorat”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Ijtimoiy pedagogika” fanlarini o'qitishda va oliv ta'lim professor-o'qituvchilari, tyutor va talabalar hamda keng jamoatchilik foydalanishlari mumkin.

**Ma'sul muharrir:**  
Jabbor Usarov – pedagogika fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**Do'stnezar Kimmataliyev** – pedagogika fanlari doktori, professor  
**Raxmatilla Musurmonov** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

*Ushbu uslubiy qo'llanna Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ushbu Kengashining 2022 yil 27 oktyabrdagi 3-soni qarori bilan nashrga taysiya etilgan.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi olly ta'lim tizimini 2030-yiiga rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'iqliq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son hamda “Respublika oliv ta'lim muassasalarida talabalarini turar

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, “Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygo domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobjiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tabbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vaktilari bo'lishlari kerak. Shu ma'noda, jamiyatda o'qituvchi va murabbiylarga bo'lgan hummat-e'tiborni oshirish, mualim ustozlarning qadbi, sha'ni va g'ururini tiklash, ularni ham ma'naviy, ham moddiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlar davom ettiriladi”. Yurtboshimizning “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida yuqorida belgilangan istuvor yo'nalish va vazifalarning mazmuni va mohiyatini tabalarning ong-u tafakkuriga singdirish, ularni ijtimoiy hayotga tuyyortash, faol fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlash, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, teran ma'rifatliik, bag'rikenglik, vaqtini mazmuni tashkil etish, millyy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlar o'rtasida uchrayotgan salbiy hotatlarning asl sabablarini aniqlash va oldini olish, huquqbazarlik va jinoyatchilikni bartaraf etish, milliy g'urur va iftixon, ma'naviy merosni astrab avaylashga qaratilgan insonparvarlik tuyg'usini tarkib toptinish kabilalari faol amalga oshirish eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.

joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 9-sentyabrdagi 563-son qarorlarida belgilangan vazifalarini amalga oshirish tartibi va yo'naliishlariga oid davlat olyi ta'lim muassasalarida talabalar bilan ishlasning yangi tizimi – tyutorlik faoliyatini tashkil etish to'g'risida namunaviy Nizom qabul qilindi. Ushbu Nizomda ta'kidlanishicha tyutor davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda maviud bo'lgan dolzarb muammolarni hal etish, yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishning ustuvor vazifalarini amaliyotga yo'naltirish, davlat ta'lim standartlari talabalarni asosida talabalarда mustaqil va erkin fikrlashni hamda dunyoqarash va global tafakkur qobiliyatlarini rivojlanтирish, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyiliiga asoslangan holda yoshlarni ona-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, jamiyatga bo'igan munosabat, ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, o'zbek xalqining tarixi, ma'naviy qadriyatlari asosida faxrlanish, milliy manfaatlarni amalga oshirishga intilish, boshqa xalqlar va millatlarning milliy qadri-qimmati, udumlari, adabiyoti va san'atini o'reganish tuyg'ularini shakllantirish masalalarining nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish bo'yicha pedagogik faoliyat olib boradi.

Tyutor o'zining faoliyatida malakali va tajribali, chuqur bilimga ega, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va o'qitishning innovation uslublarini bilishi, klasster metodi asosida boshqa tashkilotlar, yirik kompaniyalar va birlashmalar bilan aloqada bo'tishi asosida ta'lim mazmunini takomillashtirishi, milliy va Jahan adabiyoti, musiqa, kino, haykaltaroshlik, amaliy san'at va boshqa ijodiy yo'naliishlardagi bilmlarga ega bo'lishi, ta'lim jarayonida axborot yangiliklарini joriy etishi, zamonaviy talablarni hisobga olgan holda va tasdiqlangan meyorlardan kelib chiqib, yangi o'quv laboratoriya, ilmiy tadqiqot ishlarnini amalga oshirish, talaba bilan ijodiy tanlovlari, test va boshqa sinovlar o'tkazish asosida ularning bilim, ko'nikma va malakalarini, iste'dodini rivojlanтирishga qaratilgan mashg'uotlar olib borish asosida ta'lim-tarbiyaga oid vazifalarini amalga oshiradi. Tyutor talabiyoshlarga hozirgi kunda dunyoda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni ularning ongi va qabiliga yetkazishi O'zbekiston xalqining tarixiy va milliy an'analarini, ma'naviy qadriyatlari hamda Jahan madaniyati yutuqlari bilan ularni tanishtirish ilmiy, texnikaviy va badiy ijodkorligini rivojlanтиради. Ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi

va o'zaro munosabatlar orqali bir-biriga ishonch, o'ziga va o'zgalariga hotol, huqiqat bilan qarashi, o'z oldidagi mas'uliyatini to'laqoni his eta olishi, tarbiya jarayonida talaba shaxsini o'rganishi, o'zaro tushunishi, ularning manfaatlarni hisobga olgan holda o'z munosabatlarini ifodaishi, his tuyg'ularini sezishi va ularga ko'mak berishda zamonaviy va oqilonu tizim yaratishi, tadbirlarni adolatliti tashkil etishi, ularda inson va jamiyat hoqddagi tasavvurlarini shakllantirish, ijodiy fikrlash, hayotda fikl isticrok etish va tashabbus ko'rsatishga oid ijtimoiy-psixologik munosabati qaror toptiradi. Tyutor jamiyat, davlat va oila oldida o'z mas'uliyatini his etadigan, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri anlaydigan vattanparvar va xalqparvar shaxsni shakllantirishga e'tibor qoratishi, talaba faoliyatini ziyraktik, diqqat bilan kuzatishi, ularga yordam berishi, muammollarni muhokama qilishi, to'g'ri qarorlar qabul qilishi jarayonida subbatlar, so'rovnomalar, testlar o'tkazish asosida ularning fikri, dunyoqarashi, xato va kamchiliklarni aniqlash, ta'limgarbiya natijalarini o'rganish, xulosalar tayyorlashda nazariy va uslubiy darajasi, pedagogik mahorati va shaxsiy sifatları, axloqiy fazilatlarga o'ya bo'lish san'ati va ko'nikmasini amalga oshiradi. Tyutor o'zining ishbilarmonligi, bilim darajasi, ustozlik mahorati, ongi, jamiyatdagি obro'si, o'zini ijobjiy tarzda namoyon qilishi, jamoadagi muhitni sezishi, eng muhimini olib borayotgan ish faoliyatini aniq rejalashtirish, turlitumun vaziyatlarini tahlii qila olishi, talabaming o'ziga jalb etishi va ishontra olishi, so'z bilan ish birligini ta'minlashi kabilar uning asosiy kompetensiyasi hisoblanadi.

Ushbu uslubiy qo'llannada tyutor pedagogik faoliyatini tashkil etish va uni takomillashtirish, talabalarning mas'uliyati va ma'naviyatini yuksaltirish, o'z kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega bo'lish, tarbiya jarayonini boshqarishda har tomonlama to'g'ri qarorlar qabul qila olish, jamiyatning taraqqiy etishida talabalarining hayotiy darajalarini puxta bilishi va bu sohada iloji boricha katta tajriba hosil qilishi, tarbiya jarayonini boshqarishning eng samarali usullari kabi masalalar ilmiy-pedagogik jihatdan takomillashtirilgan.

Shuningdek ushbu uslubiy qo'llannada tyutorning o'z-o'ziga nisbatan munosabatları, o'z-o'zini angashi va talabalar jamoasini mustahkamlash tajribalariga ega bo'lish, o'z faoliyatini ijodiy tashkil etish, olyi maktab pedagogik jamoasida, jamoat tashkilotlari uzvijyligida talabalar tarbiyasini doimo nazorat qilishi takomillashtirishning

metodik jihatlari va ularning rejalari yortitilgan.

“Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi” va mazkur faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarни amalga oshirishda ushbu uslubiy qo’llanna muayyan darajada xizmat qildi.

## I. BOB. TYUTOR PEDAGOGIK FAOLIVATINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

### 1.1. Tyutor pedagogik faoliyatining tushunchasi va mohiyati.

Yangi O’zbekiston taraqqiyotida mamlakatimizda yoshlarning o’rni va nufuzini yuksaltirish, ularning haq huquqlarini, qonuniy manfaatlarni ta’milash, qobiliyat va imkoniyatlarini ro’yobga chiqarish, ularni jamiyatda faol va bunyodkor a’zosiga aylantirish borasida izchil va ko’lamdor ishlar amalga oshirilmоqda. Ma’lumki, yoshlар yangicha fikrlashta, yangi-yangi g’oyalarni amalga oshirishda muammlarни ijоди va nosstandart yondashuvlar asosida hal etishda ularning bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san’at va sport sohasidagi iste’dod va salohiyatini yuzaga chiqarish, ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratish kabilalar davlatimiz rahbarining yoshlар bilan ishlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risidagi bir qator farmonlarida yetakchi o’rinni egallagan. O’zbekiston respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” gi farmoni hamda Oliy va o’rtा maxsus ta’lim vazirining shu asosda 2021 yil 30 sentyabrda qabul qilingan buyrug’i va nizomi asosida OTMlarda tyutorlik tizimi joriy qilindi. Tyutorlik tizimida oliy ta’lim dargohlaridan jumiyat uchun kerakli va uni boshqaradigan yetuk mutaxassislар tayyorlash zamon talabiga mos, irodali, har tomonlana mulohazali, manfaatlari bunyodkorlik g’oyasiga sodiq yosh kadrlarni tarbiyalash turbiya jarayonini tizimli va samarali amalga oshirishning muhim shakli va vositalari asosida talaba shaxsini rivojlantirish, ularni ta’lim muassasasi, respublika va xalqaro miqdorsidagi tanlov va olimpiyadalarda munosib ishtirok etishini taminlash, bo’sh vaqtini mazmunli o’iazish yigit-qizlarni kasbga yo’naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to’garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklарini bartaraf etish, ularga atroficha yechim topish kabilarni amalga oshirish vazifalari belgilangan.

Davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to’g’risidagi qabul qilingan namunaviy Nizoming umumiy qoidalarida ko’rsatiishcha tyutor- bu oliy ta’lim muassasasida faoliyat

yuritadigan, tegishli malaka talabalariga javob beradigan, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan hodim bo'lub, o'ziga biriktiligun guruh talabalarning ta'lum olishlarida, shuningdek, darsdan bo'sh vaqtlini mazmuni tashkil etishlarida ko'maklashadi. Ulani ifsonparvarlik, adolat, mehnatsavarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida taskil etilgan to'garak va klublariga jalg etish, ta'lum olish jarayonida yuzaga keladigan barcha masala va muammoni o'rmatilgan tartibda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni olib boradi. Tyutor turar joylarida, ijaraqagi va xususiy xonardonlarda yashovchi talabalarining yashash manzillariga muntazam borib, u erda yaratilgan sharoitlar va talabalarining muammolarini o'rganib borish va ularni yaxshilash choralarini ko'rish faoliyati bilan shug'ullanadi. Tyutor o'z faoliyatida amaldagi qonun xuijatlari, olyi ta'lum muassasasi ichki tartib va odob-axloq qoidalarini hamda ushbu nizomiga riyoja etadi. Ijtimoiy tarmoqlarda ta'kidlanishicha, "tyutor"-ustoz, murabbib. Ba'-zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan tinglovchi orasidagi bog'lovchi hisoblanadi. Ya'ni ma'rizzachi tomonidan berilgan bilmlarni keng egallashda maslahatchi vazifasini bajaradi. Bu so'z o'zbek tilining izohli lug'atiga kiritilmagan. Shunga qaramay yangi termin sifatida qo'llamoqda.

Hukumatning tegishli qarori bilan 2021 yil 1 sentyabrdan talabalar bilan ishslash bo'yicha "Guruh murabbiylari" instituti bekor qilindi va 1-3 kurs talabalarini tuchun muammolarni bartaraf etishda yaqindan yordam ko'rsatuvchi "tyutor"larni biriktirish amaliyoti yo'liga qo'yildi. Hujatga muvofiq, har 120-150 nafar talabaga 1 ta shiat birligi hisobidan "tyutor" lavozimi kiritildi.

"Tyutor"ning asosiy vazifasi – ta'lum va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda universitet va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ularni olyi ta'lum muassasalari hayotい va ta'lum jarayoniga moslashishga ko'maklashish, ushubiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish va tanlangan kasbiga mehrnini oshirishdir. Shu bilan birga, tyutor yigit-qizilarning dars mashg'ulotlarini muntazam tahlil qilib borish va sifatini oshirish, ularning darsdan bo'sh vaqtinani mazmuni o'tkazishini ta'minlaydi hamda ijtimoiy ahvoldan doimiy xabardor bo'lish kabi vazifalarini bajaradi.

Tyutor ta'lum-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatlari kechishini va uning samaradorligini ta'minlovchi asosiy maslahatchi, o'qituvchi

hulfatida faoliyat olib boradi. Tyutor so'zi lotinchcha "tutor", inglizcha "Tutor" rus tilida "domashniy uchitel", "repetitor", "nastavnik" o'zbek tilida konsultant, o'qituvchi, maslahatchi, ustoz ma'nolarini anglatadi. Ushbu atama ingliz tilidan olingan bo'lub "uy o'qituvchisi, o'qituvchi, murabbib, vasiy" ma'nolarini anglatadi. "Tyutorlik" so'zi insomning shaxsiy ta'lmini qo'llab-quvvatlashni anglatish bilan birga juda nozik, "xususiy" ish faoliyati hisoblanadi. Rus tadqiqotchisi N.V.Ribalkinanining okricha, XVI asr oxiriga kelib, tyutor universitet ta'lumi tizimida qo'l ostidagi talabalarining tarbiyasiga mas'ul muhim shaxsga aylangan. XVII asrda tyutor faoliyati ko'lami yanada kengayib, unga ta'lum berish vazifalari ham yuklatiladi. U talabaga qaysi amaliy mashg'ulot va ma'ruzalarga kirishini aniqlab bergan. Talabalarining darsni goldirmay yaxshi o'qishi va imtihonlarga tayyor bo'lishini nazorat qilib borgan. XVII asrda tyutorlik tizimi rasman ingliz olyi ta'lumi tizimining ojralmas qismi sifatida tan olinna boshlagan. Ma'lumotlarga qaraganda, zamonaviy Oksfordda 90 foiz, Kembrijda esa 75 foiz tyutorlar 1 yoki 2 talaba bilan ish olib boradi.

Ular maxsus ma'lumotga ega bo'lmasada, talabalariga ham o'qish davomida, ham ta'til paytidagi rahbarlik qilish, ma'nani ustozlik qilish kabi vazifalarga mas'ul hisoblanadilar. Tyutor faoliyatining asosiy shakli talaba bilan individual va jamoada ishslash yoki unga ta'lum-tarbiya maslahatchisi bo'lishdan iborat. Tyutorga yetakchilik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, intituvchanlik, notiqlik mahorati, muloqotga kirishish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan ishslash bo'yicha malakaga ega bo'lish, ta'lum-tarbiya jarayoniga doir normativ-huquqiy hujjatlarni bilish kabi bir qator umumiy talablar qo'yildi. Talabalar birinchiga bosqichga qabul qilinishi yoki o'qishini ko'chirish orqali kelgani bois, u bilan bog'i qo'lumotlar bazasini ham shakllantiradi. Har bir tyutor o'ziga biriktiligun akademik suruhagi talabalar bilan individual o'tirib, universitet yoki dekanat tomonidan berilgan ma'lumotlar shkalasi, jamlanma shakli bo'yicha uning ism-sharifidan tortib to yashash manzili, qiziqishlari, yaqin qurimoshlari, umuman, barcha ma'lumotlarni so'rab, belgilangan ma'lumotlar bazasini to'ldiradi. Bunday vaziyatda tyutordan faoliylik, ya'ni talaba bilan individual suhbat natijasida vaziyatga aniqlik kiritish, holat jarayoniga qarab, o'qituvchi, fakultet dekanati yoki ota-onasiga xabar berish, ular bilan fikr almashish kabilalar, muammoning kattalashib

ketishining oldini oladi. Ularning bilimi, dunyoqarashi, pedagogik va psixologik tajribaga egaligini talaba-yoshlarning, ta'lim va tarbiya jarayonlarini mazmuni qiziqarli samaradorli bo'lish imkoniyattini yaratadi.

Tyutor talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomil-lashirish, nazariy va amaliy bilimlarini ular tomonidan tushunib yetish va talqin qilishlarida yordam berish, mustaqil o'qishlarni tashkil etish masalalarida yo'l-yo'r iq ko'rsatish, mastahat berish kabilarni boshqarish ketma-ketligini yaxlit tizim sifatida amalga oshirish, ushbu jarayoni to'g'ri nazorat qilish, fikr almashish, ularning har bir qadami haqida ma'lumotga ega bo'lish, o'qish davomidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash, kerak bo'lsa o'z vaqtida tegishli tuzatishlar kiritish va kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini amalga oshiradi.

Tyutor pedagogik faoliyatida oliv ta'lim muassasalarida talabalarning ma'naviy, moddiy holatini yaxshilash, ularga ko'mak berish, o'zi yashab turgan makonga e'tiborini qaratish, davlat tomonidan o'quv-tarbiya jarayonini rivojlanantirishga alohida ahamiyat berish muhim hisoblanadi. Tyutor talabalarni davlatimiz tomonidan qo'yilayotgan katta maqsadlar yo'lida yakdil birlashtirishi, ularni katta ishonch bilan faqat va faqat oldinga, yuksak cho'qilarni zabit etishga intilishi, birinchchi bo'lish da'vosi va rag'bati asosida yuksaltirish, O'zbekiston taraqqiyotining yangi yo'nalishlarini barqaror bo'tishida ta'lim-tarbiya jarayonlarini uzluksiz rivojlanantirish kabilar talaba-yoshlarga ma'naviy kuch-shijoat beradi, rizq va omad keltiradi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy mohiyati o'zbek xalqini millat sifatida birlashtirish, o'zaro mehr-oqibat rishtalarini mustahkam bog'lash bilan birga rivojlanish va hamjihatlikda baxt-saodatga erishish uchun yakdil intilish ruhini qaror toptirish sadoqati yo'lida yuksak qadam hisoblanadi. Shu bois talaba-yoshlarda turti xavflarga bardoshli bo'lish, xatrlarni birga yengishga shayliyk, tahdidlarni barraf etish, o'zaro nizolashish, bir-biridan raqib, dushman izlash illatharidan xalos bo'lish, yurti, ona tili, tarixi, madaniyatini e'zozlash negizidagi vatanparvarlikni yuksaltirish tyutor faoliyatining asosiy vazifalari hisoblanadi. Tyutor talabalarda vatanni sevish degan quruq gap bilan emas, balki amaldagi halol va haqqoniylik, fidoiylik asosidagi vatanparvarlik g'oyasi bilan qurollantirishi, ularda o'z tili, tarixi va ma'naviyatini e'zozlash asosini rivojlanantirishi, miliyy

birlashtuvning birlamchi va doimiy o'zgarmas g'oyalarini o'zaro mulqoqlarda mehr, muhabbat bilan ifoda etishi, tarbiya tadbirlarida turli uchrashuvlarda ishtirokida katta davralarda muhokama etilishida yoshi ulug' insonlardan, saboq olishi talabalarni to'g'ri yo'ga solib yuborishi ularda o'zaro mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlaydi. Tyutor talabalarni o'zaro birlashtirishga alohida e'tibor berishi natijasida ularda millat tuyg'usini shakllantiradi. Mana shu ezgu maqsad yo'lida birlashtirish uchun aynan tyutor yangi zamон ruhi, o'zgarayotgan zamон mazmunining shakl-shamoyillari bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish asosida talabalarni rozi qilish, birlashtirish va yakdil millat sifatida kuchaytirish imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi. Tyutor nizoming joriy etilishi, eng munosib kadrlarning bu ishlarni jondantirishga yo'naltirilishi oliv ta'lim muassasalarining ta'lim tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvga asos soldi. Igari barcha muammolar yechimi fakultet dekani o'rinosari zimmasiga yuklanib, ularga zarurlik rejalasriga ko'ra, yechim izlanilgan va ko'p hollarda puxta o'ylangan bo'lsa, endi puxta o'rganilib, aniqlangan muammolar tasniflanib, rejalashtirilgan holda ijtimoiy tarbiya jarayonlariga ixtisoslashtirilgan tarzda yondashila boshlandi. Tyutorning talabalar o'rtasidagi mavzeyini oshirish borasidagi fikr va mulohazzalar ularning imkoniyatlari va ta'sir ko'lамини bir necha hissa kengayishiga olib keldi. Bu holat oliv ta'lim muassasalarida talabalarni rozi qilish, aniqlangan muammolarini hal etish jarayonlarini samarali yo'ga qo'yish va boshqarish masalasini eng dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqardi. Darhaqiqat, igari tyutor koordinatorning talaba muammolarini eshitish, borib ko'rish, yuqori idoralarga masala qo'yish, rejalarغا kiritish, muammolar yechimini mas'ul idoralar va rahbarlarga eslatish muammolarini joyida hal etish imkoniyati, resurs hamda huquqiy maqomi cheklangan edi. Shu sababli, ko'tarilgan muammolar yana o'z joyida qolaveradi. Bugun esa har bir tyutor, yoshlardan yetakchisiga yangi kasbiy kompetensiya-koordinatorlik (muvoqiqlashtiruvchi) maqomi berildi. Tyutorning koordinatorlik vazifasi yuqorida oliv ta'lim muassasalarida obro'li shaxsi bo'lib, talaba manfaatlarini qo'llab-quvvatlash bilan birga tarbiya jarayonlarining kompleks rivojlanantirishning tashkiliy jihatlari uchun mas'uligi Nizomda alohida qayd etilgan. Tyutor, yoshlardan yetakchisi faoliyatini taskil etishning ustuvor vazifalarini amalga oshirishda,

tegisli tavsiyalar berishi va o'zaro mustahkam hamkorlikda ishlashini ta'minlashi, bir tomonidan, tarbiya jarayoni boshqaruvining ichki bir-damligini ta'minlasi, ikkinchidan, uning koordinatorlik funksiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, tyutor talaba e'tirozlariga eng ko'p sabab bo'layotgan muammolarining kelib chiqish ildizini o'rganish bo'yicha muhokamalar o'tkazish, OTMlarga birkirtilgan davlat organları va tashkilotlari rahbarlarining axborotlarini muntazam eshitib borishni yo'iga qo'yishi hamda muammolarining bartaraf etilishi borasidagi jamoatchilik nazoratini mustaqil ravishda o'matishi oliv o'quv yurtidagi tarbiyaviy ishlar ijrosi uchun yakdil jamoaviy harakat va talabalarning individual mas'uligini kafolataydi. Bundan tashqari, tyutor talaba guruhlari faoliyatini shunchaki baholash bilan cheklanmaydi, balki har birining amalga oshirgan ishi bo'yicha o'z xulosasini fakultet dekaniga ma'lumotlar tarzida kiritib boradi. Fakultet dekanlari ma'lumotlarga asosan, OTMlari rahbar organlari bajariishi majburiy bo'lgan taqdimmomalar kiritadi hamda talabalarni rag'batantirish yoki o'qishdan chetlatish bo'yicha takliflarini berib boradi. Tyutorning koordinatorlik funksiyasi talaba muammolarini o'rganish va hal etishning bir-biri bilan uzyvi bog'langan bo'lib tarbiya tizimida kuchli ta'sir ko'rsatish maqomiga ega bo'idi. Tabiyki, ana shunday zalvorli va ulug' vor maqsadlarni amalga oshirish uchun tyutor katta tajribaga ega, Vatan va xalq xizmatiga doimo kamarkasta bo'lishi lozim. Bu borada har bir tyutor o'z faoliyatini tartibli va izchil amalga oshirishi uchun professor-o'qituvchilarvatabalalar jamoasida hamfikrlik, hamkorlik muhitini yarata olishi muhimdir. Tyutorning tizimi shunday yaratilishi kerakki, bu jarayonda, eng avvalo, talabalardan o'z tashabbus va g'oyalarini, o'zlarini qiyinayotgan muammolarini ochiq-oshkora ko'tarib chiqish imkoniga ega bo'lsin. Qolaversa tyutor, yoshlarga o'z fikrini erkkin ayta oladigan muhitini yaratishi lozim. Shundagina talabalardan tyutor bilan turli muammolar yechimi, guruh obro'si va jamao kelaiagi bo'yicha ham o'z fikrini ayta oлади. Hamfikrlik har qanday muammoning yechimini topish va rivojlanishga turki bo'ladi. Ushbu jarayonda koordinatsiya qoidalarini ishlab chiqish nazorat qilishini o'zi boshqarish organlari zimmasiya yuklangan mulhim vazifalarni ado etishda tyutorga ko'makchi bo'ladi. Chunki oliv ta'lim muassasalarida talabalarning kelgusi faoliyatini to'g'ri belgilashida mas'ulikni his etishi, bilim olishi bilan birga darsdan bo'sh vaqtida nimalar bilan

bandigi, qanday muhitida yashhashi, uning fanlardan tashqari qiziqishlari-hammasi tyutorning boshqaruviga bog'liq. Tyutor-tabalalar shaxsini rivojlanishiga, universitet, respublika va xalqaro miqyosdagi olimpiadalarida munosib ishtirot etishiga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtinani mazmunli o'tkazishiga ko'maklashuvchi inson bo'lib, u yigit-qizlarni kasba yo'naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jaib etish hamda muammo va kamchiliklarini o'rganib, ularga atrofichcha yechim topish bilan shug'ullanadi.

Tyutorlarning asosiy maqsadi ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish, talabalardan o'rta-sidagi munosabatlarni mustahkamlash, ularning universitet hayoti va ta'lim jarayoniga moslashishiga ko'maklashish, ularga uslubiy, ijtimoiy psixologik yordam ko'rsatish va tanlagan kasbiga muhabbatni oshirishdir. Shu bilan binga tyutor yigit-qizlarning dars mashg'ulotlarini muntazam tahlil qilib boradi va sifatini oshiradi. Ularning darsdan bo'sh vaqtinani mazmuni o'tkazishini ta'minlaydi hamda ijtimoiy ahvoldan doimiy xabardor bo'lib turadi.

Tyutorlar ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-tarbiya, o'quv va o'quv uslubiy hamda ilm-fan, innovatsion va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida o'z faoliyatini olib boradi. Har bir tyutor o'ziga birkirtilgan guruhi talabalarni ijodiy qobiliyati va iste'dodini namoyon etishi uchun imkon yaratadi. Talabalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, ularning ta'lim olishi, ilm bilan shug'ullanishi, yashhashi va dan olishi uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashadi. Iste'dodli yigit-qizlarning o'quv intizomini mustahkamlash, ularda ijodiy fikrlash, hatollik, to'g'ri so'zlik kabi xishlatlarni shakllantirish borasida tizimli ishlarni yo'iga qo'yadi. Iqtidorli talabalarni aniqlab, ularning turli tanlov va olimpiiadalarda munosib ishtirot etishiga loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, talabalarning darslarni o'zlashtirish darajasini nazorat qilib boradi, ularning innovatsion ta'lim texnologiyalari va o'quv-uslubiy materiallar, axborot-resurslari bilan ta'minlash va ushu manbalardan keng va unumli foydalananishni uchun zumin yaratadi. Shu bilan birga tyutor talabalarni o'yantiradigan qator masalalar, xususan, ularni turar joy bilan ta'minlash, qoldirilgan darslarni o'zlashtirishiga yordam berib boradi. Har bir tyutor o'ziga birkirtilgan akademik guruhlarning darslarini, talaba davomatini va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish, talabalarga yuklatilgan

majburiyatlarining bajarilishini talaq qilish, TTJga joylashishi uchun e'lon berish va bu boradagi komissiya yig'ilishiда talabaning ishtirokini ta'minlash, talabaga tavsifnomasi va akademik ta'til berish masalasini hal qilishda ishtirok etish, ularni rag'battantritishi yoki jazolanishi, turli stipendiylarga tavsija qilishda xulosa va fikrnomasi berish huquqiga ega. Shuningdek, har bir tyutor talabalarning sha'ni va qadr-qimmatini, obro'sini hurmat qilish, ularning jismony, ruhiy holatidan muntazam xabardor bo'lish, o'quv, ma'naviy va ilmiy faoliyatini monitoring qilib borish, yigit-qizlarning darslarda faol ishtirok etishini tashkil etadi.

Tyutor uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishida uning chuqur o'rganishi, to'laqonli anglashi, oly ta'limga maktablarida tarbiya jarayonini takomillashtirishning asosini tashkil etadi. Shu bilan binga uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini asosida ta'limga muassasalarinin faoliyatini yo'liga qo'yish, ta'limga tarbiya jarayonlarining tashkil etishiga xizmat qiladi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepiyasi, ta'limga tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratishi asosida talaba shaxsi ma'naviyatini shakllantirish, unda eng olyi insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-ahloqiy madaniyatini tarbiyalashda muhim o'rinn tutuvchi nazariy g'oyalarni amalga tatbiq etishda alohida o'rinn tutadi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda tyutorning pedagogik faoliyati, uning pedagogik mahorati muhim ahamiyatga ega. Chunki tyutor milliy tarbiya an'analarini, qadriyatlarini tiklash, ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashdirish, qadriyatlariga zid bo'lgan turli qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etadi. Bu o'rinda tyutor talabalarda vijdonan mehnat qilish, tadbirkorlik, kasbyi-ma'naviy, innovation tafakkur, tashabbuskorlik, fidoyilik fazilatlariga ega bo'lish, halol mehnat qilish, mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erishish ko'nikmalarini shakllantiradi. Jamiyatda har bir yigit-qizning kamida uchta zamona naviy kasb-hunar sirlarini egallashlari uchun yetarli sharoitlar yaratilganligidan kelib chiqqan holda ularni hayotga tayyorlashga o'rgatish tadbirlarini tashkil etish, mehr-oqibat, oddamiylik, ota-onalarga hurmat va sadoqat kabi fazilatlarini mustahkamlash vazifalarini amalga oshiradi.

## 1.2. Yangi O'zbekiston sharoxitida iste'dodli yoshlarni tarbiyalash

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasini amalga oshirishda tyutorlar o'quv-tarbiya jarayonlarini tizimli rivojlantrirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'limga dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish, ta'limga, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, talabalarini ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashda boy milliy madaniyat, tarixiy an'analar va umumbashariy qadriyatlarni "Ta'limga-amaliyot" integratsiyasi asosida amalga oshirish, mamlakat olimlarining ta'limga tarbiya taraqqiyotiga oid asarlarni qiyosiy taqposlash asosida pedagogika fani salmoqli ishlarni amalga oshiradi.

Bu borada tyutorlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjalarning mazmun va mohiyatini talabatarga yetkazish, "Yangi O'zbekiston, yangicha dunyoqarash", "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlarni mamlakatiga aylannoqda" mavzularida mustaqillik darslari hamda targ'ibot tadbirlarini o'tkazish, talabalar bilan dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritish, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatism, odam savdosi, "ommaviy madaniyat" va boshqa tahiddilarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borishiga doir tadbirlar, "Biz "ommaviy madaniyat"ga qarshimiz", "Tinchlik oly ne'mat" mavzularida "Tarbiya" darslarini tashkil etish, Abdumahid Sulaymon o'g'li Cho'lpov, Abdurauf Fitrat, Muhammadsharif So'fizoda, Sadreddin Ayniy, Abduqodir Shakuriy, Is'hoqjon Ibrat, Kamoliddin Xusayn Voiz Koshify, Jaloliddin Rumiy, Abu Mansur al Mouturudiy asarlarni chuqur o'rganish, slaydlar tayyorlash, taqdimotlar o'tkazish asosida talabalarning ma'naviy-marifiy bilmlarini rivojlantririshda faol ishtirok etish, "Harakatlar strategiyasi"da belgilangan ustuvor yo'nalish vazifalarining ijrosini ta'minlash hamda hayotga tatbiq etish tyutorning strategik vazifalari hisoblanadi.

Tyutor professor-o'qituvchi va talabalar bilan birgalikda "Uchinchi

Renesans" poydevorini yaratish, yangi O'zbekiston taraqqiyotini rivojlanтирish, kelajak poydevorini qurish va yangicha ishlash, malakali kadrlarni tarbiyalash, zamонавиу педагогик та'lim strategiyasini takomillashtirish kabi vazifalarini amalga oshirishda fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta'lim-tarbiya jarayonlariga oid o'quv adabiyotlarni yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'limni boshqarish, ta'lim turлari va yo'naliшlari o'rтasida uзviylik va integratsiyasini ta'minlash, o'qitish metodlari va vositalardan foydalanish kabi yo'naliшlarda fan dasturlari, o'quv qo'llannmalar, darsliklar yaratishda faol ishtirok etishi talabalarning ilmiy tadqiqot, innovatsion va loyihalashdirish faoliyatini olib borishda, o'quv va tajriba eksperimental baza vazifasini o'tashda, ta'lim jarayonlarini yangilashda o'z samarasini ko'rsatishi muhim o'ren tutadi. Tyutor pedagogik ta'limni takomillashtirishga oid yangi avlod o'quv, o'quv-metodik, ilmiy adabiyotlar, vositalar va didaktik materiallar majnuasini yaratish, talabalarning ilmiy salohiyatini oshirishda pedagogik jamiyatlar, jamoalar, jamaot birlashmalari, davlat va nodavlat taskilotlari bilan hamkorlik qilish masalalariga ham alohida ahamiyat berishi, olyi ta'lim muassasalarini va ilmiy markazlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'iga qo'yish ishlaringning faol ishtirokchisi sifatida, talabalarga pedagoglik kasbini targ'ib qilishning turli shakli va turlarini izlab topishi va ularmi ta'limga tabiq etish, ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlovchi mexanizmlarni amalga oshiradi.

Tyutor yangi O'zbekiston taraqiqiyotiga xizmat qilishda ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, ularning mazmunini bugungi kun talablariga mos bo'lish va ularmi takomillashtirish maqsadida o'quv-amaliyot tadbirlarini, metodik yordam, pedagogik loyihihalar va innovatsion mashg'ulotlar, strategik rejalarni ishlab chiqishda va bo'lajak o'qituvchilarni kasby faoliyatga tayyorlashda istirok etadi. Tyutor talabalarning ta'lim-tarbiya salohiyatini yanada oshirish maqsadida ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy markazlar va tayanch olyi ta'lim muassasalarini bilan hamkorlikda xalqaro ilmiy anjumanlarni amalga oshiradi.

Tyutor pedagogik ta'lim sohasi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish, zamонавиу bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini yo'iga qo'yishda "Mahorati pedagoglar" to'garaklarini tashkil etish asosida talabalarni

talabalarning ilmiy tadqiqot, innovation va loyihalashdirish faoliyatini olib borishda, o'quv va tajriba eksperimental baza vazifasini o'tashda, ta'lim jarayonlarini yangilashda o'z samarasini ko'rsatishi muhim o'rinn tutadi. Tyutor pedagogik ta'limni takomillashtirishga oid yangi avlod o'quv, o'quv-metodik, ilmiy adabiyotlar, vositalar va didaktik materiallar majmuasini yaratish, talabalarning ilmiy salohiyatini oshirishda pedagogik jamiyatlar, jamoalar, jamaot birlashmali, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish masalalariga ham alohida ahamiyat berishi, oliv ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish ishlaring faol ishtirokchisi sifatida, talabalarga pedagoglik kasbini targ'i qilishning turli shakl va turlarini izlab topishi va ularni ta'limga tabbiq etish, ta'lim va tarbiya uزvivlioni ni ta'minlovchi maxaniyemlarni amalo ochiradi.

Jang, C. zotkisoni taladqiyonga xizmat qisitida ta min-tarbiya sifatini oshirish, ularning mazmunini bugungi kun talablariga mos bo'lish va ularni takomillashtirish maqsadida o'quv-analoyot tadbirlarini, metodik yordam, pedagogik loyiylar va innovatsion mashg'ulotlar, strategik rejalarini ishlab chiqishda va bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ishtiroy etadi. Tyutor talabalarining ta'lim-tarbiya salohiyatini yanada oshirish maqsadida ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy markazlar va tayanch oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda xalqaro ilmiy anjumanlarni amalga oshiradi.

Tyutor pedagogik ta’lim sohasi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’lim sifatini oshirish, zamona viy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo’llash ko’nikmalariga ega bo’lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini yo’lga qo’yishda “Mahoratlari pedagoglar” to’garaklarini tashkil etish asosida talabalarini

pedagogik va psixologik bilimlарини rivojlantirish orqali iqdirli yoshlарни topish va ularни kasbiy faoliyatga tayyorlash ishlарida faol ishtirok etadi. Bo'tajak o'qituvchilarнing tajribalarini takomillashtirish maqsadida ta'lim va tarbiyawiy ishlarga bog'iilq ilmiy, amaliy seminarlar tashkil etishda hamkorlik ishlарини amalga oshiradi.

Tyutor talabalarning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida tadqiqot institutlari, ilmiy markazlar va tayanch olyi ta'lim muassasalarini bilan hamkorlikni kuchaytirish, ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalg qilish bo'yicha "Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonларини rivojlantirish istiqbollari" mavzusida ilmiy amaliy anjumanlar tashkil etadi.

Tyutor ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatidan unumli foydalanish, zamонавиyy fan-texnika yangilikларини amaliyotda joriy qilish, uzuksiz pedagogik ta'lim tizimida talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlарини mustahkamlash, kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatga yo'naltirish, ta'lim-tarbiya jarayoniдagi muammolarni o'rGANISH, pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlарини olib borish, yaratilgan o'quv-uslubiy quo'llamma, elektron darsliklardan foydalanish, ilmiy tadqiqot ishlарини sinovdan o'tkazish, o'qitish metodларини takomillashtirish samaradorligini oshirish maqsadida ilmiy-amaliy seminар, mahorat darsлari, tarbiya soatлari, "Ustoз-shogird" an'analari asosida talaba yoshlarning madaniy-ma'rifiy, badiiy-ijodiy, ijtimoiy iqtisodiy, intellektual dunyoqarashi, tafakkuri Yangi O'zbekistonning istiqbolini jahон hamjamiyatdagi munosabatlar mavqeyini yanada takomillashtirishga o'z hissasini qo'shgan holda atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqeа-hodisalarни idrok etish, yangicha siyosat, yangicha ma'naviyat barpo etish jarayonida talabalarning insonga va jamiatga, butun borliqqa munosabatini o'zgartirish, ijtimoiy ongни yangilash kabi ta'lim-tarbiya jarayonларини amalgа oshiradi.

Tyutor talabalar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabat, tarbiya tizimi, oilalarda sog'lom muhitini qator topirish, yoshlar ongu qabiga milliy mentalitetimiz, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni singdirish bilan birga talabalar turar joyi, xususiy xonadonlarda, ijara da istiqomat qiluvchilar bilan olib boriladigan axloqiy tarbiya ishlari jarayonida ularga xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an'analarni asrab-avaylash va o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash va ijtimoiy himoya qilishga doir tadbirlar, uchrashuvlar o'tkazadi.

pedagogik va psixologik bilimlarini rivojlantirish orqali iqidori yoshlarni topish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash ishlariда faol ishtirot etadi. Bo'tajak o'qtuvchilarning tajribalarini takomillashtirish maqsadida ta'lim va tarbiyaviy ishlarga bog'liq ilmiy, analiy seminarlar tashkil etishda hamkorlik ishlarini amalga oshiradi.

Tyutor talabalarning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida tadqiqot institutlari, ilmiy markazlar va tayanch olyi ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish bo'yicha "Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari" mavzusida ilmiy amaliv anjumanlar tashkil etadi.

bugungi rivojlanish bosqichida talabalarning egallagan bilmari va tajribalarini uzviy va uzuksiz aloqasini rivojlantrish strategiyasini sifatli va samarador bo'lishiga alohida ahamiyat beradi. Buning uchun tyutor talabalarda milliy axloqiy fazilatlarini qaror topotirish an'analarini rivojlantrishni amalga oshirishga qaratilgan ijobiy tajribalarni omma-lashtirishga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar, o'quv-treninglar, seminarlar, forumlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishda ilmiy-pedagogik jihatdan amaly yordam beradi. Ma'naviy-axloqiy fazilatarni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni taskil etadi. Talabalarda ijodiy fikrash, yaratuvchanlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda o'z samarasini ko'rsatadi. Ushbu jarayonda tyutor dun-yodagi rivojlangan mamlakattarning tarbiya borasidagi ilgor yutuqlarini o'rganish, xalqaro ilmiy aloqalarni yo'lg'a qo'yish, tajriba almashish, xalqaro konferensiyalarda ishtirot etish bilan birga ma'naviy tarbiyaning samarali va ta'sirchan mashg'ulot va tadbirlarni tashkil etadi. Talabalarga milliy tarbiya asoslarini to'laqonli tushuntirish, ajoddalarimizning tarbiyaga oid ta'limotlarini ularga yetkazishda buyuk ma'rifatparvar siymolar merosini targ'ib etishga qaratilgan "**O'n ikki oy - o'n ikki alloma**" kitobxonlik oyliklarini o'tkazish, yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda tarbiya jarayonini takomillashtirish, talabalarning ma'naviy faoliigli va tashabbuskorligini rivojlantrishda ularning kelaiakkha ishonchi, mustaqil fikrash va qatorlar qabul qilishi, shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlash, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish, ishonch, sadoqat, mehr-muhabbat va hamjihatlikni mustahkamlash malakalarini shakllantirish, ma'naviy barkarorlikni ta'minlashda mas'ullik, moddiy farovonlikka erishish uchun zarrur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan dastur va loyiylarni tay-yorlashda yordam beradi. "**Ustoz-shogird**" an'analariga asoslangan holda talabalarni milliy hunarmandchilik, zamona naviy kasb-hunar o'rganish faolyatini amalga oshiradi. Tyutor ajoddalarimizning boy ma'naviy merosini, axloqiy fazilatlar majmui bo'lgan milliy tarbiya an'analarli, vositalari, shakllarini o'rganish maqsadida talabalar bilan mamlakatimiz hududlanga ekspeditsiyalarni tashk'il etishi, ijtimoiy-gumanitar fanlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar asosida ularda ma'naviy tarbiya kompetensiyalarini, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Ma'naviy-axloqiy, siyosiy, sog'lom e'tiqodini uyg'un shakllantirishda o'z samarasini ko'rsatadi.

samaradorlikka erishishning imkoniyatlarini yaratadi.

Tyutor o'quv jarayonida ta'lim oluvchilar shaxsini o'rganib borishni, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini, motivlari zaminini hamda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarini aniqlab va tahil qilib borish vazifalarini bajaradi. U talabalar bilan samarali muloqot asosida turli axborotlarga ega bo'lish, tarbiya jarayonini shakl va usullarini takomillashtirish, ularni idrok etish, tushunish, uning ichki holati, faoliyati natijalarini oldindan ko'ra bilishi, aniq maqsadga qaratilgan vazifalarini belgilab olishi, boshqarishi, axborot texnologiyalaridan foydalanishi, loyihalashtirishi kabilat ta'lim-tarbiya jarayonini samarorigini oshiradi. Tyutor talabalar faoliyatida paydo bo'layotgan qiyinchilik va muammolarga e'tiborli bo'lishi, ularni o'z vaqtida qo'llab-quvvatlashi va to'g'ri maslahatlar berib borishi, guruhlarda sog'lom ijodiy muhitni tashkil qilishi uchun rejalashtirilgan ishlearning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Talabalarda idrok etish, muloqotga kirishish, ta'lim-tarbiyaga oid axborotlarni anglab etish, ularning o'zini boshqarish, o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash kabilar ma'naviy va intellektual kamol topishda namoyon bo'ladı. Buning uchun tyutor talabalarda o'zini-o'zi rivojlantrish va kamolga erishish, o'quv-bilim faoliyati texnologiyasini ishlab chiqish, o'quv maznumuni takomillashtirish jarayonlarida tarbiyaviy ishlearning ilmiy-pedagogik, ilmiy-tekhnologik xaritasi va uni amalda qo'llashning algoritmiq tizimini va shaxs kamolotini rivojlantrish imkoniyatini yaratadi. Chunki ushbu jarayonda bevosita o'quv-pedagogik faoliyati sifatida ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi mas'uliyatini belgilash, shuningdek, kuch va vaqtarini tegishlcha taqsimlash, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashni optimallaشتirish (optimal boshqarish) uchun ularning madaniy-ma'rifiy, ilmiy-ma'naviy va intellektual salohiyatini har tomonlana ro'yoga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Tyutor o'z faolyatini rivojlantrishda bilimi, ko'nikma va malakalarini takomillashtirib borishga alohida ahamiyat berishi-maxsus psixologik-pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida ta'lim oluvchilarning mustaqil o'quv-bilimlarini takomillashtirishi ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishda o'z samarasini ko'rsatadi.

Shu jihatdan tyutor oliv ta'lum jarayonida ham katta o'zgarishlarni amalga oshirishda yoshlardan ittifoqi bilan hamkorlikda talabalar faoliyatini mazmunli o'tkazishi, tadbirkorlik sohasidagi g'oya va tashabbuslarini ro'yobga chiqarishda yetakchilik vazifalarini amalga oshiradi.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, milliy manfaatlariiga to'la javob beradigan ta'lum-tarbiya jarayonlarini amalga oshirish tyutorlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tyutor pedagogik faoliyatida yutuqlar bilan birga kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish, oliv ta'lum muassasalarida ta'lum-tarbiya ishlarni tashkil etish va boshqarishda talabalarining bilim egallashida shart-sharoitlar yaratish mahoratiga intilishlarini ro'yobga chiqarishda shart-sharoitlar yaratish mahoratiga ega bo'lishi ularda shijoat, dadil fikr va takliflarni vujudga keltiradi. Bu o'rinda tyutor o'z faoliyatini boshqarish va tashkil etish, iqtidori talabalmi aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalashda ilg'or ta'lum shakllari, pedagogik texnologiyalarini joriy etish, ijodiy faoliyatga ega bo'lgan pedagogik kadrlarni tayyorlash, har bir ishiga mas'uliyatlari, ziyrak, hushyor bo'lishi muhim hisoblanadi.

Talabalar tarbiyasiда doimo izlanish va intilishda bo'lgan, yuksak marralarni ko'zlab, oldinga qarab intiladigan tyutor o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga albatta erishadi. Chunki ular talabalarining ongu tafakkuri, mehr, vafo va sadoqat, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantiradi. Darghaqiqat, tyutor faoliyatida oila, mahalla, jamoatchilik hamkorligida jismonan baquvvat, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrلайдиган, ishslash va ongli yashash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamонавиј fan-texnika va texnologiya yutuqlarini o'zlashtiradigan, ma'lum kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni shakllantirish muhim o'r'in tutadi. Tyutor talabalar bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirot etishiga qaratilgan jarayonlarni amalga oshirish asosida umuminsomiy qadriyatlar, milliy meros, ma'rifat va hayot saboqlarini shakllantirish vazifasini amalga oshiradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu jarayonda tyutor bir necha avlodga mansub shaxslarning o'zaro munosabatlari uzviyligini ta'minlashda faol ishtirot etadi, ularning bir-birlari bilan bilim, tajribalarini o'rganish, takomillashtirishga oid yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Yosh avlodda moddiy va ma'naviy qobiliyatlarini shakllantirish uchun uzuksiz ravishda faoliyat ko'rsatadi. Talabalmi

mamlakat hayoti va xalq taribasi bilan tanishтириш, ular shaxsining har tomonlama rivojlanтиришда ta'lum-tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining iqtisodiy va ma'naviy boyliklarini chuqur o'rganish asosida tyutor ularni talabalar ongiga yetka-zish, madaniyat, kino, raqs va tasviriy san'sat sohalarini, adabiyot va kitobxonlikni rivojlanтириш, milliy hunarmandchilikni takomillashtirish, mashg'ulotlar jarayonida madaniy boyliklar, buyuk bobolarimizning diniy va ilmny ma'naviy merosini o'rganish va targ'ib etish Imam Buxoriy, Imam Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari, shuningdek, O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi, Imam Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilish asosida talaba-yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlardan ruhida tarbiyalash ishlarni olib boradi. Tyutor hozirgi murakkab va shiddatli zamonda ma'naviy-ma'rifiy ishlearning o'mi va ta'siri tobora ortib borayotganini hisobga olib, talabalar ma'naviyatini qo'llab-quvvatlashida bilim va tajriba, tashkilotchilik salohiyati, fidoyilik faoliyatini samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shu jihatdan ham ta'lum islohotlarining samarali amalga oshirilishi bevosita tyutorning bilim va tajribasi, ishbilarmonlik xususiyatlariga bog'liq. Eng muhim, ular talaba yoshlarning ishonchini qozongan bo'lishi shart. Bu o'rinda ularning faoliyatini va muomala madaniyat, siyosiy, huquqiy va axloqiy saviyasiga ota-onalar, keng jamoatchilik baho beradi. Lekin ochiq aytadigan bo'lsak, ba'zi bir tyutorlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiya sohasidagi ish faoliyati, talaba yoshlari o'tasida yetarli obro'e tiborga ega emas. Buning uchun tyutor ta'lum-tarbiya jarayonida fanlar uzviyligiga erishish va keng qamrovli ishlarni amalga oshirish, ularni nazzariy va amaliy jihatdan tashkil etishda falsafa, ma'naviyat, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, anotomiya, fiziologyva va gigiyena, etika, estetika fanlari bilan bog'liqlikda olib borish muhim o'r'in tutadi. Afsuski, ko'pgina tyutorlar talaba-yoshlarning dard-u tashvishlari bilan yashashni qandaydir ikkinchi darajali ish deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham ular ko'pgina masalalarda zaif va ojiz bo'lib qolmoqda. Tyutor pedagogik faoliyatning madaniyati, hayotiy bilim va tajribalari bevosita talabalar bilan muloqot qilishdan boslanadi. Tyutor talabalar bilan birga ishamasa, qanchalik sharoit yaratmasa ta'lum islohotlarining rivojlanishi qiyin bo'ladi. Bugungi tyutor mustaqil qaror qabul qilib, mustaqil ish olib borish imkoniyatiga ega. Tyutor nimanidir bilmasligi

yoki ko'zdan qochirishi, xatoga yo'l qo'yishi mungkin, lekin u ana shu xatolarni tuzatishda yangicha ishlash, o'z bilim va tajribasini oshirishi tabala-yoshlar baxtini ta'minlash jarayonlarini takomillashtirishning asosini tashkil etadi. Chunonchi, tyutor ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil qilish va talabalarga bilim berish jarayoni orqali ularni hayotda qo'llay olishga o'regatish usul va uslublarini amalga oshirish masalarini nazzariy va amaliy jihatdan rivojlantrirdi. Ta'lim jarayonida tyutor turli tarbiya ishlarini olib boradi. Masalan, yigit-qizlar hamda turli millat vakillaridan iborat bo'lgan jamoa asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil qildi. Tarbiyaviy ishlar asosida talabalarda "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish", "Yangi O'zbekiston taraqqiyotida yoshlar ishitroki" kabi yo'naliishlarni shakllantirish kabilar talabalarning bilim saviyasini oshirish, ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyatini rivojlantrish imkoniyatini yaratadi. Albatta bunda tyutorning pedagogik mahorati, ilg'or tajribalari muhim ahamiyatga ega.

### 3. Yangi O'zbekiston sharoitida tyutor pedagogik faoliyatining strategiyasi

